PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

YORDAMCHI SO‘Z TURKUMLARINI O‘QITISH METODIKASI

Xayrulloyeva Malikabonu Shaxobiddin qizi
ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti
O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi
malikabonuxayrullayeva@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.20293429

Annotatsiya: Ona tili fanida yordamchi so‘zlar muayyan bir hodisa hisoblanib, fanni o‘rganishda o‘ziga xos o‘ringa ega. Chunki nutqimiz boyligi, uslubiy ravonligi bevosita yordamchi so‘zlardan o‘z o‘rnida foydalanishga ham bog‘liq. Ushbu maqolada yordamchi so‘z turkumlarimi o‘qitishda zamonaviy innovatsion metodlarning ahamiyati haqida so‘z boradi.
Kalit so‘zlar: yordamchi so‘zlar, ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama, o‘qitish metodikasi, sodda gap, qo‘shma gap, interfaol ta’lim.

Аннотация: В науке о родном языке вспомогательные слова считаются специфическим явлением и занимают особое место в изучении науки. Потому что от правильного употребления вспомогательных слов напрямую зависит богатство и стилистическая беглость нашей речи. В данной статье говорится о значении современных инновационных методов в обучении вспомогательной лексике.
Ключевые слова: вспомогательные слова, помощник, соединитель, загрузка, методика обучения, простое предложение, сложносочиненное предложение, интерактивное обучение.

Abstract: Auxiliary words in the science of mother tongue are considered a specific phenomenon and have a special place in the study of the science. Because the richness and stylistic fluency of our speech directly depends on the proper use of auxiliary words. This article talks about the importance of modern innovative methods in teaching auxiliary vocabulary.
Key words: auxiliary words, helper, connector, download, teaching methodology, simple sentence, compound sentence, interactive education.

Ma’lumki, yordamchi so‘zlar haqida ilk ma’lumotlar boshlang‘ich sinflarda beriladi. Yuqori sinfda o‘quvchilar gaplarni gap bo‘laklariga ajratish, mustaqil holda gap bo‘lagi bo‘lib kela olmaydigan so‘zlar ro‘yxatini tuzish, bu ro‘yxatni mustaqil davom ettirish, shunday so‘zlar yordamida gaplar tuzib, bu so‘zlarning vazifalari ustida ishlash singari ijodiy-amaliy ishlar bilan shug‘ullanadilar.

Yordamchi so‘zlar atash ma’nosiga ega bo‘lmagan, ma’lum so‘roqqa javob bo‘lmaydigan, gap bo‘lagi vazifasida kelmaydigan so‘zlardir. Ularga ko‘makchi, bog‘lovchi va yuklama kiradi.

Yordamchi so‘z turkumlarini o‘rganishda quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalar o‘quvchi ongiga singdirilishi lozim:

- har bir yordamchi so‘zning o‘ziga xos xususiyatilarini hisobga olish;
- yordamchi so‘zlarning bir-biridan va mustaqil so‘zlardan farqini ajrata bilish;
- ularni og‘zaki va yozma nutqda to‘g‘ri, uslubiy jihatdan o‘rinli qo‘llay olish.

O‘quvchilarning nutqiy salohiyatini oshirishda dars davomida turli interfaol metodlardan foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ayniqsa, hozirgi zamonda yangi pedagogik texnologiyalar afzalligi zamon sinovidan o‘tib interfaol darsning sifat va samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi o‘z isbotini topmoqda.

Yordamchi so‘zlarning muhim qismini bog‘lovchilar tashkil etadi. Bu so‘zlarni o‘quvchilarning nutqiy faoliyatiga olib kirish uchun sodda gap juftlarini o‘zaro biriktirib, bitta gapda aylantirish, ularning o‘zaro bog‘lanish vositalarini aniqlash, juft va yakka bog‘lovchilarni alohida-alohida

guruhlarga ajratish, teng bog‘lovchilar va ergashtiruvchi bog‘lovchilar ro‘yxatini tuzish, ular yordamida gaplar ko‘rish, matn yaratish kabi amaliy ishlardan foydalansa bo‘ladi. Mazkur mavzuni o‘rganishda ohang va bog‘lovchilarning o‘zaro vazifadoshligi ustida ishlashni unutmaslik lozim.

Gapning uyushiq bo‘laklari va qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarni o‘zaro bog‘lash uchun xizmat qiluvchi yordamchi so‘zlarga bog‘lovchilar deyiladi: Olma, o‘rik va gilos gulladi. U keldi lekin indamadi. Havo bulut, lekin yomg‘ir yog‘madi.

Ma’no va vazifalariga ko‘ra bog‘lovchilar 2 xil bo‘ladi:

Teng bog‘lovchilar – uyushiq bo‘laklarni hamda, bog‘langan qo‘shma gap qismlarini ya’ni teng huquqli qismlarni bog‘laydi. Ular 4 xil:

Biriktiruv bog‘lovchilari - va, hamda, ham - sof bog‘lovchilardir; -da, -u, -yu, bilan vazifadosh bog‘lovchilardir. -da, -u, -yu - yuklama – bog‘lovchilar; bilan – ko‘makchi - bog‘lovchidir: Opam bilan singlim keldi – bog‘lovchi; Opam singlim bilan keldi – bog‘lovchi emas, ko‘makchi.

Zidlov bog‘lovchilari- ammo, lekin, biroq, balki: havo bulut, lekin yomg‘ir yog‘madi. U o‘qidi, lekin tushunmadi. -u, -yu vazifadosh zidlov bog‘lovchisidir: Qo‘ng‘iroq chalindi-yu , dars boshlanmadi. Balki – vazivadosh bog‘lovchi bo‘lib, gapda ba`zan modal so‘z? ba`zan zidlov bog‘lovchisi sifatida qo‘llanadi. Qiyos qiling: Bu xabar uni hayron qoldirmadi, balki shodlantirdi. Balki, bugun yomg‘ir yog‘ar.

Ayiruv bog‘lovchilari- goh, dam, ba’zan, bir – doim takrorlanib qo‘llanuvchi bog‘lovchilardir. Yo, yoki – sodda va takror holda qo‘llanuvchi bog‘lovchidir: Dam musiqa yangraydi, dam kulgi eshitiladi. Bir menga, bir do‘stiga qaraydi. Ayiruv bog‘lovchilari galma-galdan yuzaga keladigan voqea-hodisalarni ko‘rsatadi.

Inkor bog‘lovchisi- na… na. Uyushiq bo‘lak va gaplarni inkor ma’nosini yuklagan holda bog‘laydi: na o‘qidi, na yozdi. Bunda gapning kesimi tasdiq, shaklida bo‘ladi. Na bog‘lovchisi inkor ma’nosini ifodalaydi: Na eshikni, na derazalarni ochdi.

Ergashtiruvchi bog‘lovchilar-tobe, hokim qismlarni, o‘zaro tobe munosabatda bo‘lgan gap bo‘laklari va gaplarni bog‘laydi: Hunar o‘rgan, chunki hunarda sir ko‘p. Ular 3 xil. 1. Aniqlovchi bog‘lovchilar – ki, ya’ni 2. Sabab bog‘lovchilari - chunki, negaki, toki 3. Shart bog‘lovchilari – basharti, agar, garchi.

Ma’lumki, yangilanayotgan darsliklar va boshqa o‘quv materiallari o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishga, ularda tanqidiy va ijodiy tafakkurni o‘stirishga qaratilgan. Milliy o‘quv dasturi asosida fanlar chiziqli tartibda emas, spiralsimon tarzda o‘qitiladi. Bunda asosiy e’tibor mustaqil o‘rganish, tanqidiy fikrlash, jamoada ishlash, ijodkorlik, tizimli va mantiqiy fikrlash kabi XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratiladi. Endi fan mavzulari darsliklardan bir-birini mantiqan davom ettiruvchi hamda soddadan murakkabga tomon yo‘naltirilgan tarzda joy oladi.

6-sinf ona tili darsligida yordamchi so‘zlar haqidagi ma’lumotlar berilgan. “Jigar – eng mehnatkash a’zo” mavzusi bo‘yicha berilgan topshiriqlar o‘quvchilar ijodiy tafakkuri va bilim salohiyatini oshirishga qaratilgan. “Qontomirlar” audiomatni tinglanib, savollarga javob beriladi. Unda mustaqil so‘zlarni bir-biriga bog‘lagan so‘zlar aniqlanadi va daftarga yoziladi.

Keyingi topshiriqda ikki ustunda berilgan sodda gaplardan bog‘lovchilar asosida qo‘shma gaplar hosil qilinadi. Masalan: Yog‘li taomlar va gazli ichimliklar iste’mol qilishni kamaytirish zarur, chunki bunday mahsulotlar sog‘ligingiz uchun juda zararli. Ushbu topshiriq o‘quvchilarning grammatik bilimlarini mustahkamlash bilan birga o‘z sog‘liklarini asrash uchun ham kerakli tavsiyalar beradi.

Bog‘lovchilarni o‘rganishda ham so‘z boyligini oshirish va nutqini rivojlantirish asosiy talab hisoblanadi.

Yordamchi so‘zlarni maktab o‘quvchilariga o‘qitishning zamonaviy metodikalarini ishlab chiqish borasidagi izlanishlar hozirgi kunda dolzarb hisoblanadi. Yordamchi birliklarning keng ma’no tabiati, xususan, uslubiy tabiati, ishlatilish doirasining u yoki bu darajadagi imkoniyatlari maktab darsligi va dasturida berilgan. Ta’lim tizimining bu bosqichida til hodisalarining

qo‘llanishidagi ifoda imkoniyatlariga qaratilgan ekan, demakki, o‘rganish manbai bo‘lgan yordamchi vositalarning ta’lim tizimida o‘tish ham, o‘quvchilarga mazkur hodisa bo‘yicha keng bilim berish, yordamchini o‘z nutqida yetarlicha qo‘llay olishga, ulardan keng foydalanishga o‘rgatish bir qator kuzatishlarga zarurat sezadi. Yordamchi birliklar – so‘z va qo‘shimcha shakllarni ta’lim tizimida o‘tish ona tili ta’limi maqsadi va mazmunining bir bo‘lagi sanaladi. Bunda o‘qituvchidan o‘ziga xos faollik, izlanish, bilim va tadbirkorlik talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azimova I. va b. Ona tili. Toshkent - 2022.
2. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. Toshkent - 2010.
3. G‘ulomov A. va b. Ona tilini o‘qitish metodikasi. Toshkent - 2012.
4. Roziqov O.v.b. Ona tili didaktikasi. Toshkent – 2005.
5. Yuldasheva D. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. Buxoro – 2021.